

## Kitobni asrang!

Kitob – insonning eng yaqin yordamchisi. Kompyuter va gadgetlar ishdan chiqishi mumkin, ammo kitob doim biz bilan birga bo'ladi. Kitob bizning do'stimiz va ustozimiz hisoblanadi. Kitoblarni yaratish uchun ko'plab insonlar mehnat qiladilar. Biz ajdodlarimizning dono o'gitlarini kitoblar orqali o'rganamiz. Ular hayotda to'g'ri yo'lni tanlashimizda bizga yordam beradi. Agar kitobni asrab-avaylasak, u ko'plab insonlarga uzoq yillar xizmat qiladi.

Kitob bizni bilim va quvonchlar bilan limmo-lim o'zga bir tasavvurlar olamiga yetaklaydi. Vaqti kelganda, u bizni Yer yuzidagi kichik hujayralardan tortib, okean hamda koinotda kechadigan turli voqeа-hodisalar va ularning sirlaridan voqif qiladi.

Kitob bizni o'ylashga, fikr yuritishga va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.



## **Salom, aziz bolajonlar!**

Sizni ushbu ajoyib va qiziqarli darslikni o'rganishga taklif etamiz! Bu darslik yosh, biroq juda zarur fan – Informatika va axborot texnologiyalari faniga bag'ishlangan. Siz darslikdagi bir mavzudan boshqasiga o'tish bilan axborot olish, undan to'g'ri foydalanish haqida ko'plab yangi va qiziqarli bilimlarga ega bo'lasiz. Shuningdek, o'qishda va hayotda sizga yordam beruvchi foydali amaliy usullarni bilib olasiz.

Qiziquvchan, ziyrak va ijodkor bo'ling!

**Sizga omad tilaymiz!**

I bob  
Biz olamni qanday  
qabul qilamiz?



## Bizning sezgi a'zolarimiz



- 1.** Rasmga qarang.

  - Bola nima qilyapti?
  - U qanday tovush chiqaryapti?
  - Nima uchun otasi norozi qarab o'tiribdi?
  - Nima uchun qizcha boshini burib, dasturxon tomon qaradi?
  - U nimaning hidini sezdi?





2. Siz nimani ko'rishingiz, hidlashingiz, mazasini bilishingiz, ushlab his qilishingiz mumkin?



3. Qaysi sezgi a'zolari orqali televizor va telefonning ishlayotganini bilishingiz mumkin?



4. Maqolning ma'nosini tushuntirib bering.

Ko'z qo'rqaq,  
Qo'l botir.

